



O'ZBEK TILINING LEKSIK ZAXIRASI VA O'ZLASHGAN QATLAM

Boymirzayev Akbarali Mingboyevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

tel: +998 (90) 747-16-14

@mail: aliboymirza1614@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7703577>

ARTICLE INFO

Received: 25th February 2023

Accepted: 06th March 2023

Online: 07th March 2023

KEY WORDS

Leksika, leksik zaxira, o'z qatlam, o'zlashgan qatlam, leksema, izohli lug'at, lisoniy birliklar, so'zshakl, grammatik shakl.

ABSTRACT

O'zbek tilining leksik zaxirasi tushunchasi o'z ichiga o'z qatlam leksikasi bilan birga o'zlashgan qatlamni qamrab oladi. Chunki xalq o'z tarixiy taraqqiyoti davomida mazkur leksikadan ehtiyojiga yarasha foydalangan va bu so'zlar tilimizning boyligiga aylanib ulgurgan. Bugungi kunda ba'zi qarashlarda tilning sofliğini saqlash uchun o'zlashgan qatlam so'zlari o'rniga muqobil so'zni irod qilish haqida fikrlar bor. Shuningdek, bu imkonsiz ekanini ta'kidlovchilar ham yo'q emas. Tilga insonning o'zbilarmonlarcha aralashuvi ko'pincha ijobiy emas, salbiy ta'sir ko'rsatadi. Maqolada o'zbek tilining leksik zaxirasi va unda o'zlashma birliklarning ahamiyati aks ettirilgan. Shuningdek, bu birliklardan voz kechishning imkonsizligi va hozirgi muhim masala – endigi o'zlashayotgan birliklarga munosib javob qaytarish masalasi ilgari surilgan.

Lug'at boyligi muayyan tilga xos bo'lgan lisoniy birliklarning miqdori bilan o'lchanmasligi bugun barchaga ayon. Chunki hech bir lug'at xalq tilining barcha qirralarini, jabhalarini, kechinmalarini qamrab ololmaydi. Qaysidir tilning lug'at boyligini aniq raqamlar bilan ifodalash, aslida, imkonsiz. Tilning boyligini qayd etish uchun uning leksik zaxirasi bilan bir qatorda, ifoda yo'sini, xalqona iboralar, maqollar, matallar, shuningdek, morfologik va sintaktik yaxlitlashgan shakllarning qamrovi bilan ham hisoblashish lozim.

Bir jamiyatning taraqqiyoti boshqa jamiyatga ham bog'liq bo'lganidek, tillarning o'zaro yaqinlashishi, birining ikkinchisiga ta'sir etib borishi til jarayonining harakatdagi barqaror qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon barcha tillarda uchraydi va hech bir til o'zining mutlaq leksik mustaqilligiga ega emas. Bugungi xalqaro mavqega ega tillar ham ayni shu jarayondan xoli emas.

Har bir til asosan o'z lug'at sostavi va grammatik qurilishi bazasida ichki taraqqiyot qonunlari bo'yicha o'sib, takomillashib boradi. Bundan tashqari, til kollektivlarining o'zaro aloqasi natijasida bir til ikkinchisini boyitib boradi. Xalqlar orasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar natijasida bir til qurilishiga xos elementlar (asosan, lug'aviy birliklar,



qismangina grammatik va fonetik birliklar) ikkinchi tilga o'tib boradi, shu tilga singib, uning o'z elementiga aylanib ketadi.[2: 68]

Tilning o'zlashma so'zlar hisobiga ham boyib borishini tilshunos olim – Miraziz Mirtojiyev ham ayrim misollar bilan ta'kidlab o'tgan: "So'z o'zlashtirish, ya'ni o'zlashma so'zlar hisobiga ham o'zbek tilida antonimlar tarkib topadi. Masalan, forsha *do'st* va *dushman*, *xafa* va *xursand*, arabcha *muhabbat* va *nafrat*, *azob* va *rohat*, rus tili orqali o'zlashgan *aktiv* va *passiv*, *import* va *eksport* so'z juftliklari o'zbek tilida ham antonim hisoblanadi". [3: 226]

O'zbek tili leksikasi o'z taraqqiyoti natijasida juda ko'plab bosqichlarni bosib o'tgan. Ma'lumki, tilning boyishi ikki manba hisobiga yuz beradi. Avvalo, ichki imkoniyatlari asosida so'z yasash, shevalardan so'z o'zlashtirish va ehtiyoj tug'ilganda, eskirgan leksika qatidan muayyan birliklarni qaytarish hisobiga o'zbek tilining imkoniyatlari oshib bormoqda. Shuningdek, o'zga tillardan so'z o'zlashtirish jarayoni ham, bir vaqtlar bo'lganidek, bugungi kunda yanada faollashib bormoqda.

O'zbek tili leksik qatlamini taraqqiyotini ham jamiyatdagi muhim o'zgarishlarni hisobga olgan holda ma'lum bir davr bosqichlari asosida o'rganish mumkin. O'zbek tili qadimgi turk tilidan o'sib chiqib bugungi maqomiga yetgunga qadar uzoq yo'lni bosib o'tgan va o'z-o'zidan bu yo'lda leksik zaxiraning bir tomondan boyishi, boshqa tomondan esa kambag'allashishiga duch kelgan deyish o'rinli. Chunki yangi leksemalar va grammemalarning tildan o'rin olishi tilni boyitish bilan birga, tilning asosiy boyligi bo'lgan qaysidir tub birliklarning o'rnini egallashi yoki ahamiyatini susaytirishi turgan gap. Yangi tushuncha bilan birgalikda o'rinishgan leksik birliklar esa tilda ayni shu jihatda javob qiladigan, ya'ni so'z "ishlab chiqaradigan korxona"ning mavjud emasligini ko'rsatishi bilan birga, bunga bo'lgan ehtiyojsizlikni (dangasalik) keltirib chiqaradi.

Qadimdan o'rta Osiyo hududida bir necha asr davomida fors-tojik tillari bilan (bunda bitta til nazarda tutilmaydi, chunki katta davr mobaynida xalqimiz eroniy tillar guruhiga mansub bir qancha til egalari bilan qo'shnichilikda, birodarchilikda yashagan), shuningdek, arab tili bilan bir qatorda iste'molda bo'ldi. Bu esa o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. O'zbek tili leksik qatlamiga yangi so'zlar, so'z shakllari, so'z [birikmalari](#), iboralar, hattoki grammatik va derivatsion qo'shimchalar ham kirib keldi. Qo'shma gap qoliplarining-ku, o'zi bir talay. Bora-bora bu so'zlarning aksariyati o'z qatlam so'zlari kabi tilimizga moslashib, ajratib bo'lmas tarzda o'rinishdi. Buning sababi sifatida o'zlashma so'zlarning tilda ko'p asrlik nutq jarayoni va til tizimidagi sinonimik, graduonimik, giponimik, bir so'zning faollashuvi, ikkinchi so'zning passivlashishi jarayoni kabi munosabatlar hisobiga barqaror o'rinishib qolgan deyish mumkin.

O'zbek tili leksik zaxirasidagi eng qadimgi so'zlar umumturkiy so'zlar bo'lib, ularning asosiy qismini *qur*, *sur*, *bosh*, *qosh*, *qo'l*, *yuz*, *til*, *uch*, *tur*, *kel*, *ket*, *bo'l*, *ko'r*, *so'r*, *och*, *qoch*, *soch*, *tosh*, *iz*, *tuz*, *qol*, *qon*, *ton*, *son*, *yon*, *ko'ch*, *quch*, *ter*, *ber*, *ayt*, *surt*, *turt*, *bot*, *qot*, *sot*, *yot*, *et*, *yet*, *chal*, *oq*, *besht*, *tesh*, *kech* kabi bir bo'g'inli tub so'zlar tashkil etadi. Bundan tashqari, o'zbek tili lug'at boyligidagi umumturkiy qatlamda *issiq*, *achchiq*, *qayta*, *kishi*, *qo'yin*, *bo'yin*, *og'iz*, *og'ir* kabi ko'p bo'g'inli tub va yasama so'zlar ham talaygina.

Hozirgi o'zbek tili lug'at tarkibida, ko'pchilik turkiy tillar uchun umumiy qismdan tashqari, o'zbek tilining o'z mustaqil taraqqiyoti natijasida paydo bo'lgan qism ham mavjud, albatta. Masalan, *chiqindi*, *qirindi*, *boshlang'ich*, *belgili*, *qiziqarli*, *yozuvchi*, *o'qimishli*, *topshiriq*,



yutumli, yoqimli, bilimli, yutuqli, yonilg'i, yoqilg'i, sanoqli, yashasin, anglamoq, aytarli kabi so'zlar o'zbek tili manbayidagi yasallishlardir. Bular o'zbek tilining o'z imkoniyatlari bilan yasalgan yangi so'zlardir. Bulardan tashqari, boshqa tildan kirgan so'zga o'zbekcha affiksni qo'shib yangi so'z yasash ham avj olgan. Masalan, *jangchi, dasturchi, traktorchi, mardlik, jonli, rejalashtirmoq, saxiylik, ahmoqlarcha* kabi. Buning aksi, ya'ni o'zbek so'zi negiziga boshqa tilga xos yasovchini qo'shib so'z hosil etish ham uchraydi. Masalan, *bebosh (bevosh), beish (ishsiz), bilimdon, tug'ruqxona* kabilar shu yo'l bilan yasalgan. [2: 68]

Arab tilidan o'zlashgan so'zlar, avvalo, muqaddas dinimizning eng mukammal manbasi bo'lgan Qur'oni Karimning, qolaversa, hadis va sunnat amallarining keng tatbiq etilishi jarayonida tilimizda muqim o'ringa ega bo'lgan. Shu sababli ham bu tilga mansub leksik birliklarning salmog'i hatto fors-tojikcha qatlam so'zlaridan-da yuqori. Ayniqsa, fleksiya hodisasi sezilib turadigan leksemalarning ba'zilarida o'ndan ortiq o'zakdoshlarning mavjudligi ham bu til elementlarining o'zbek tiliga naqadar chuqur singishganini ko'rsatadi. Masalan: *hukm, ahkom, hokim, hokimiyat, hukumat, mahkama, mahkum, mahkam, mustahkam, istehkom; ilm, olim, ulamo; islom, salim, muslim, musulmon, taslim; xabar, axbor(ot), muxbir; xarj, xorij, maxraj, xarajat, ixroj, xuruj, xiroj; dars, madrasa, mudarris; aqrabo, qariyb, muqarrab; qat', qit'a, qat'iy; she'r, shuur, ash'or, shoir; ahl, aholi, mahalla, mahalliy, mahal (joy ma'nosida); fikr, mafkura, tafakkur, mutafakkir*.

Hozirgi o'zbek tili leksikasida arab tilidan o'zlashtirilgan leksemalarning ko'pchiligi ot, sifat va ravish turkumlariga mansubdir: otlar — *adabiyot, axborot, avlod, ayol, maktab, maorif, ma'naviyat, hosil, hukumat, odam, haqiqat, intizom, inshoot* va b.lar; sifatlar — *adabiy, ajnabiy, aziz, azim, ayyor, aqliy, badiiy* va b.lar; ravishlar — *avval, ba'zan, bil'aks, ta'ziman* kabi. Bulardan tashqari, bog'lovchilar (*balki, ammo, lekin, va, vaholonki*), undovlar (*ajabo, barakalla, salom, xayr*), modal so'zlar (*albatta, ehtimol, avvalo*), yuklamalar (*faqat*), ko'makchilar (*binoan*) ham o'zlashtirilgan. [3: 190] Arab tilidan so'z o'zlashishi ma'lum davrda deyarli to'xtab qolgan edi. Bugungi kunda arab tili, islom dini va uning manbalarini mukammal o'rganish va hadislarni sharhlash jarayonida yangi o'zlashmalar tez-tez quloqqa chalinmoqda.

Fors-tojik sistemasiga oid so'zlarning o'zbek tiliga o'zlashtirilishida quyidagi omillarning alohida roli bor: a) o'zbek va tojik xalqlarining qadimdan bir (yoki qo'shni) territoriyada, bir xil ijtimoiy tuzum, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy muhitda yashab kelayotganligi; b) o'zbek-tojik va tojik-o'zbek ikki tilliligining (bilingvizmining) keng tarqalganligi; d) tojik va fors tillarida ijod qilish an'alarining uzoq yillar davom etganligi; e) Qo'qon xonligi va Buxoro amirligida tojik tilining alohida mavqega ega bo'lganligi; f) adabiyot, san'at, madaniyat, urf-odatdagi mushtaraklik va b.lar. [4: 191]

«Tarixiy taraqqiyot davomida hatto ba'zi fors-tojik so'zlari qadimiy turkiy so'zlarni umumqo'llanishdan yoki neytral leksika sostavidan siqib chiqargan va ularning ba'zilar hozirgi o'zbek tilida faqat stilistik chegaralangan leksika qatoridan o'rin olgan» [1: 12]. Demak, aksar hollarda til o'zining nafaqat obyekt, balki subyekt maqomida ham ekanini namoyon qiladi.

Forscha o'zlashma so'zlarni arabcha o'zlashmalarga qaraganda farqlab olish murakkabroq hisoblanadi. Tilshunos olimlar ularni o'quv qo'llanmalarda o'rganishganda bunday so'zlarni farqlash belgilarini ham ko'rsatib o'tishadi. Biroq bu belgilar bu kabi so'zlarni o'z qatlam so'zlaridan farqlab olish uchun yetarli asos bo'la olmaydi.



Taniqli olim M.Olimovning ta'kidlashicha, so'zlarning forsiyligini, birinchidan, ularning o'zagi yoki o'zaklaridan bilib olishimiz mumkin. Masalan: *hafta, puxta, panja, xonanda, raftor, guftor, omad, durbin, xaskash, xokandoz, poyandoz, chorva* (asli «chorpo» bo'lgan), *bardosh, dono, nodon, gazanda, xaridor, gumroh, dahanaki, dilbar, dutor, kambag'al, kamyob, murda, mo'ysafid, mo'ylov* («mo'yi lab»), *poyabzal, shabnam, dasta, dastsho'y, serob* (seryob), *dehkon, diydor, kaptar* (kabud par), *xo'rak, yakka, aftoda, rahbar*.

Ikkinchidan, forsiy tillar Hind-Yevropa tillari oilasiga kiradi. Shuning uchun bazi forsiy so'zlarning forsiy ekanligini o'zimizga tanish Yevropa tillaridagi ekvivalentlaridan bilib olishimiz ham mumkin. Masalan (fors-tojikcha – inglizcha): *birodar* – *brother*; *duxtar* – *daughter*; *isto* – *stop*; *padar* – *father*; *bad* – *bad* va h.k.

Ba'zi forsiy so'zlarning forsiy ekanligini she'riy jarangdorlikka egaligi, bizning tilimizda poetik so'z ekanligidan ham qisman bilib olishimiz mumkin. Faqat buning uchun tilimizda o'sha so'zning turkiy sinonimi bo'lishi kerak.

Boshqa bir qism forsiy so'zlarning forsiyligini izohli lug'atlardan bilib olishimizga to'g'ri keladi. Masalan: *baho, xona, g'isht, dasht, shogird, shirin, mard, kam, chala, arzon, baxt, bozor, bog', gumon, gunoh, dev, devor, durust, dud, iskanja, karvon, ko'shk, lang, latta, lanj, laxta, loy, loyqa, nay, monand, motam, nayza, narx, nihol, non, olov, parhez, soz, pashsha, poda, tashna, sitam, tanho, umid, usta, shahar, fig'on, xira, xirmon, xomush, xursand, xurjun, hunar, goh, qalandar, g'avgo, hamisha, hamma, hanuz*.

Hozirgi o'zbek tilida tojik-fors tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar orasida otlar (*sartarosh, avra, avra-astar, bazm, barg, baxt, daraxt, daraxtzor, hunar, hunarmand*), sifatlar (*badbo'y, badjahl, baland, baravar, barvasta, bardam, barzangi, barra, baxtiyor, bachkana, ozoda, toza*), ravishlar (*bajonidil, banogoh, do'stona, tez, bazo'r, astoydil, chunon*), bog'lovchilar (*chunki, yoki, agar, garchi, ham*), undovlar (*balli, dod*), yuklamalar (*xo'sh, xuddi*), modal so'zlar (*chunonchi, binobarin*) uchraydi. [4: 191]

Rus tilidan (shuningdek, rus tili orqali yunon, lotin, nemis, ingliz va boshqa tillardan) o'zlashgan so'zlar ham talay bo'lib, bu jarayon garchi avvalgi manbalar (arab, fors-tojik) qatori asrlarni qamrab olmagan bo'lsa-da, bir asrlik muddat davomida o'zbek tiliga juda katta leksik zaxira o'zlashtirildi. Rus tili orqali o'zlashish degani ham shundan dalolat beradiki, biz ruscha deb biladigan ko'pgina lisoniy birliklar rus tili uchun o'zlashma qatlam. Bu davrda o'zlashgan leksemalar garchi tilning boyishida yangi davr nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etgan bo'lsa-da, ammo mazkur birliklarning rus tili qolipida tilga kirib kelishi ko'pgina o'rinda g'alizliklarni keltirib chiqardi.

Bu bosqichda o'zlashtirilgan leksemalar: *gazeta, jurnal, avtobus, trolleybus, tramvay, teatr, roman, epopeya, epilog, programma, syujet, konsert, assambleya, assistent, geometriya, asteroid, kometa, bakteriya, semantika, generator, kompyuter, kaloriya, sistema, struktura, kvadrat, texnika, texnologiya, mashina, atom, yadro, fizika, matematika, traktor, kombayn, raketa, avtomat, armiya, propozitsiya, sinonimiya, omonimiya, leksema, grammatika, morfema, spiral, stadion, infeksiya, inflyatsiya, punkt, parlament* va b.lar.

Rus tilidan so'z o'zlashtirishiga ko'proq quyidagi omillar sabab bo'lgan: a) Chor Rossiyasining imperialistik siyosati; b) Sovet imperiyasida rus tilining millatlararo til mavqeyiga ega bo'lishi, bu mavqening yildan yilga mustahkamlanib borishi; d) o'zbek – rus ikki tilliligining tarkib topishi; e) matbuot, radio, televideniya rus tiliga keng o'rin berilishi;



d) maktab maorif tizimida, oliy o'quv yurtlarida rus tilining maxsus o'qitilishi; f) ilm-fan terminologiyasining shakllantirilishida ruscha-baynalmilal atamalarga ko'proq tayanish; g) ma'muriy-idoraviy ish qog'ozlarining asosan rus tilida yozilishi va b.lar. [4: 180]

Bugungi kunda o'zbek tiliga o'zlashayotgan so'zlar oqimi shu qadar kattaki, bu ketishda tilimizning sofligiga putur yetishidan xavotirlar paydo bo'lmoqda. Masalan, *vay-fay (wi-fi)*, *ayfon (iphone)*, *onlayn (online)* va b. Xo'sh, ikki yozuvlilik (aniqrog'i, ikkilanish) yuzaga kelmasligi uchun biror chora ko'rilmogdami? Lotin alifbosi masalasidan ortmayapmiz-ku?

Mashhur telegram tarmog'idan olingan quyidagi matn o'zlashish jarayoniga ongli munosabatda bo'lishni ko'rsatadi.

15-martdan 18-martgacha Toshkentda ilk bor **Franchising Week Uzbekistan franchayzing** haftaligi bo'lib o'tadi.

- 7 ta mamlakatdan 100 dan ortiq **franchayzing** tarmoqlari ishtirok etmoqda;
- 3000 dan ortiq tashrif buyuruvchilar kutilmoqda;
- 30 dan ortiq **franchayzing** bozorining xalqaro ekspertlari.

Franchayzing haftaligi rejasi:

- 15-mart – **Franchayzi** Akademiyasi. *Tadbir bepul, tashrif buyurish uchun saytda ro'yxatdan o'ting.*
- 16-mart - **FRANCHISING EXPO UZBEKISTAN** xalqaro ko'rgazmasi. *Tadbir **INTERNATIONAL** mehmonxonasida bo'lib o'tadi. Chet el va mahalliy **franshizalar** haqida shaxsan bilib oling yoki o'z tarmog'ingiz haqida gapirib bering!*
- 17-18-mart – **Franchayzerlar** Akademiyasi. *Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya va Belarus davlatlaridan kelgan **franchayzing** mutaxassislari bilan chempion **franshizasini** yarating!*

Mana shu kabi tarjimalar yoki o'zlashgan so'zlarni noo'rin qo'llash davom etsa, bir deganda millionlab o'quvchilarga ega tarmoqlarning kuzatuvchilarida tushunmovchiliklar yuzaga keladi. Va bu ularning ham tildan foydalanishda "bilganingni qilsang bo'larkan" qabilida ish tutishlariga turtki bo'ladi. Tilimizga singishmagan so'z va iboralar talaygina. Ularni qabul qilish me'yori yoki muqobil leksika yaratish me'yori ishlab chiqilishi bugungi tilshunoslikning dolzarb muammosi bo'lib qolmoqda.

O'z qatlamga xos so'zlardan o'zlashgan qatlamga xos so'zlarni ajratib olish hamma vaqt oson bo'lavermaydi. Bularni o'zaro farqlashda, asosan, so'zlarning fonetik strukturasiga suyanib (ba'zan grafik xususiyatini ham hisobga olib) ish ko'riladi. Ammo bu yetarli emas. Orfoepik xususiyatga e'tiborsizlik quyidagi kabi jiddiy kamchiliklarga sabab bo'ladi.

Umumiy izohli lug'atlarda lug'aviy birlikning barcha – grammatik, uslubiy, frazeologik birlik tarkibida qatnashishi, omonimligi, qaysi tildan o'zlashganlik belgilari ko'rsatiladi. [5: 180] Ammo izohli lug'atda ma'lum o'rinlarda muayyan kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Masalan, *asta* so'zi o'z qatlamga mansub birlik sifatida qayd etiladi (aniqrog'i, o'zlashma ekanligi ifodalanmaydi).

ASTA *rvsh.*

1. Past tezlik bilan; sekin. *Shoqosim o'rnidan turdi, etagining changini qoqib.. o'z chaylasi tomon asta jo'nadi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *To'qay ustiga tun qorong'iligi asta bostirib kelayotgan paytda, u qamishlar orasidan chiqdi.* S. Ahmad. Ufq.



2. Past darajadagi tovush bilan; sekin. *Mirzakarimboy yana o'shshayib tikildi, ammo maslahatgo'ylik bilan asta gapirdi.* Oybek, Tanlangan asarlar.

3. Sezilar-sezilmas darajada, shunday xatti-harakat bilan, sekin. *Asta ko'zini ochmoq. Eshikni asta yopmoq. — Ahmad dik etib turib, yelkamga asta urib qo'ydi.* S. Siyoyev, Yorug'lik. [6: 110]

Izohli lug'atning *ohista* so'zi izohiga to'xtalganda, uning forsiy qatlamga mansubligi ta'kidlangan. [7: 196] Biroq *ohista* so'zini tojik millatiga mansub kishilar *osta* tarzida talaffuz qilishi va bu o'zbek tiliga *asta* tarzida o'zlashgani haqida ma'lumot ochiqdanmay qolgan: *ohista* → *osta* → *asta*

Hozirgi kunda ingliz tilidan bevosita o'zlashayotgan so'zlar imlosida ham og'riqli nuqtalar yuzaga kelmoqda. Bu esa tilshunoslardan leksikografiya, orfoepiya va orfografiya yuzasidan chuqur asosli tadqiqot ishlari talab etilishini bildiradi. Masalan: *investor (investor), katalog (catalogue), programma (program), plastik (plastic), minimal (minimum), laboratoriya (laboratory), ekspriment (experiment), effekt (effect), avtomatik (automatic), veb-sayt (website), pauza (pause), klik (click), kanal (channel), sistema (system), xarakter (character), meditsina (medicene), balans (balance), limit (limit), artist (artist), galereya (gallery), planeta (planet), konsert (concert), ekspert (expert), chelenj (challenge), chempion (champion), klassik musiqa (classik music), ritm (rhythm), trener (trainer), kurs (course), shou-biznes (show business), hit parad (hit parade), selfi (selfie), skaner (scanner), komfort (comfort), kemping (camping), diler (dealer)* va b.

Umuman olganda, leksik qatlam taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ekan, bu hodisani to'g'ri qabul qilmoq va o'z vaqtida yetarlicha choralar ko'rilmog'i kerak. Bunda tilimizda o'rinlashgan (muqim o'ringa ega) so'zlar uchun yangi muqobil atamalarni izlamasdan (to'g'rirog'i to'qimasdan) keyingi jarayonda o'zlashishi kutilayotgan lisoniy birliklar uchun muqobil leksika hozirlash vazifasini bajarish o'ta muhim sanaladi. Qaysidir so'z xalq "iste'mol"iga singishib ketdimi – endi uning boshqa variantini topish va singdirish juda murakkab va aksar hollarda imkonsiz jarayondir. Demak, nimanidir chiqitga chiqarish emas, nimanidir o'ylab kiritish kerak.

References:

1. O'zbek tili leksikologiyasi (jamoat). – Toshkent, «Fan», 1981.
2. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: O'qituvchi, 1975.
3. Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – T.: Mumtoz so'z, 2010.
4. Jamolxonov N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: O'qituvchi, 2005.
5. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2010.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. Birinchi jild. – T.: O'zME, 2007.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. Uchinchi jild. – T.: O'zME, 2007.